

Farg'ona viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025- yil yanvar-iyul oylari uchun

- I. Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirdorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025- yilning 1- avgust holatiga ko'ra viloyatda 6079 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 1035 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 17,0 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 1026 tasi (16,9 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 781 tasi (12,8 %) kiyim ishlab chiqarishga, 516 tasi (8,5 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga va 472 tasi (7,8 %) to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1- avgust holatiga ko'ra



II. Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 30 768,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,1 % ni tashkil etdi.


	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Farg'ona viloyati	30 768,8	107,1
<i>shahar tumanlar:</i>		
Farg'ona shahri	7 034,1	102,8
Qo'qon shahri	4 888,0	108,7
Quvasoy shahri	1 040,5	106,5
Marg'ilon shahri	1 178,1	106,4
Oltiariq tumani	569,7	103,4
Qo'shtepa tumani	1 342,2	104,3
Bag'dod tumani	665,7	104,9
Buvayda tumani	635,8	109,7
Beshariq tumani	817,5	106,7
Quva tumani	475,1	101,5
Uchko'prik tumani	2 423,2	107,1
Rishton tumani	243,2	108,3
So'x tumani	95,9	109,4
Toshloq tumani	1 226,1	104,0
O'zbekiston tumani	832,7	105,5
Farg'ona tumani	964,9	108,4
Dang'ara tumani	734,9	105,8
Furqat tumani	470,8	107,3
Yozyovon tumani	232,2	106,9
<i>Mavzuga doir ko'rsatkichlar:</i>		
<u>Sanoat ishlab chiqarish hajmlari (oylik)</u>		
<u>Sanoat ishlab chiqarish hajmlari (yillik)</u>		

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg'ona shahrida (21 309,0 ming so'm), Qo'qon shahrida (15 515,2 ming so'm), Quvasoy shahrida (10 047,6 ming so'm), Uchko'prik tumanida (9 788,3 ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4 553,6 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 105,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, Buvayda tumanida (107,2 %), Qo'qon shahrida (106,9 %), So'x tumanida (106,5 %), Rishton tumanida (106,3 %), Farg'ona tumanida (106,3 %), Furqat tumanida (105,1 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


**Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-iyul oylarida**



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025- yilning yanvar-iyul oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 28 414,4 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (92,3 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 177,8 mlrd so'm (0,6 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 1 971,2 mlrd so'm (6,4 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 205,4 mlrd so'm (0,7 %) ni tashkil etdi.

**Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025- yilning yanvar-iyul oylarida**





III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 59,2 ming tonna avtomobil benzini (2024- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 34,3 % ga kamaygan), 83,5 ming tonna ip kalava (0,8 % ga ko'paygan), 610,3 ming litr aroq mahsulotlari (1,6 martaga ko'paygan) hamda 206,9 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (56,4 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyul*	2024- yil yanvar-iyul*	2025- yil yanvar-iyul
Paxta tolasi, tonna	37 304,9	43 701,0	44 217,6
Paxta urug'lari, tonna	62 458,2	61 575,3	40 980,7
Avtomobil benzini, ming t	210,0	172,7	59,2
Dizel yoqilg'isi, ming t	267,8	229,6	137,8
Paxta linti, tonna	3 183,6	4 708,6	3 146,3
Neft bitumi, ming t	39,5	30,8	30,0
Portlandsement, ming t	431,7	219,4	198,7
Sement klinkrlari, ming t	113,4	59,3	17,8

*2023-2024- yillarning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,0 % (2024 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,8 % (2024 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,4 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,8 % ni (2024- yilning yanvar-iyul oylarida 0,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 20,5 % (16,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 25,7 % (26,0 %), quyi texnologiyali 53,1 % (57,0 %)ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025- yilning yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 109,3 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 98,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyul*	2024- yil yanvar-iyul*	2025- yil yanvar-iyul
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	203,3	190,0	207,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	987,2	758,2	747,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarini yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilarida 111,8 % ni, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 129,7 % ni tashkil etdi. Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 126,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyul*	2024- yil yanvar- iyul*	2025- yil yanvar-iyul
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	8,7	21,4	27,8
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln so'm	10,0	17,8	22,5

*2023-2024- yillarning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 13 227,1 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 56,7 %ni tashkil etdi. 2024- yilning yanvar-iyul oylarida kichik biznes sub'ektlarining umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 51,6 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuvi materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiylaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiyy-hajmi-qiyamatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
O.Komilov
73 241-96-28 (4010)

Manzil:

